

**TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASI XIZMATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI
(**"O'ZMILLIYBANK" AJ MISOLIDA**)**

Nishanov Xurshidjon Madaminovich

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi **Biznesni boshqarish**
(**Master of Business Administration-MBA**) **Banking 23-02-guruh** magistranti*

***Annotatsiya:** Bugungi kunda xalqaro darajada islom moliyasining hajmi oshishi tijorat banklarida ham bunday xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirmoqda. Banklar bugungi moliyaviy sektorning turg'un holatiga turli moliyaviy xizmatlarni ko'rstaib daromad ko'rmoqda. Bunda, tijorat banklarida islom moliyasi xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini O'zmilliybank AJ misolida yoritib berilgan.*

***Аннотация:** сегодня увеличение объема исламских финансов на международном уровне также увеличивает объем предоставления таких услуг в коммерческих банках. Банки видят прибыль, предоставляя различные финансовые услуги сегодняшнему застойному финансовому сектору. При этом направления развития исламских финансовых услуг в коммерческих банках были освещены на примере АО "узбекский национальный банк".*

***Abstract:** Today, the increase in the volume of Islamic finance at the international level is also increasing the volume of provision of such services in commercial banks. Banks see profits by providing various financial services to today's stagnant financial sector. At the same time, the directions of development of Islamic financial services in commercial banks were highlighted using the example of Uzbek National Bank.*

Kirish

So'nggi yillarda islomiy moliya FinTech sohalari bilan bir qatorda, shuningdek, xalqaro moliyaviy xizmatlar sanoatida eng jonli va shu bilan birga hali ko'zga yaqqol tashlanmagan tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Islomiy moliya atamasi mahsulot va xizmat turlarining keng doirasini o'z

ichiga oladi. Islom moliyasi va bankining umumiy amaliyotlari islom dinining o'rnatilishi bilan birga paydo bo'ldi. Biroq, institutsional islom moliyasi XX asrdan keyin tashkil etilgan. **Qardus** nashrining ma'lumotiga ko'ra ayni paytda islom moliya sektori yiliga 15 foizdan 25 foizgacha o'sib bormoqda, islom moliya institutlari esa dunyo bo'ylab umumiy qiymati **2,7 trillion dollardan** ziyod aktivlarni boshqarmoqda.

Hozirgi vaqtda Islom moliyasi eng yaxshi yo'lga qo'yilgan uchta davlat Saudiya Arabistoni, Eron, Malayziya ko'rsatkichlar ko'lami bo'yicha global bozor hajmining 66 foiziga egalik qiladi.

O'zbekistonda «Islom bank ishi va moliyasi» tashkiloti (AlHuda) fikricha, MDH mamlakatlarida islom moliya sanoatining o'sishi boshqa davlatlarga qaraganda sekinroq, ammo bu mintaqada imkoniyatlarning ortib borayotgani tufayli jahon xalqaro bank sanoatining e'tiborini tortmoqda. MDH davlatlari hukumatlari ushbu sektorni rivojlantirish bo'yicha tashabbus ko'rsatsa, keyingi besh yil ichida islom banki ishi sezilarli darajada o'sadi.

Tahlil va natijalar

Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston MDHda islom banki va moliyasining bu kengayishida yetakchilik qiluvchi asosiy o'yinchilar bo'lishi mumkin, deyiladi bayonotda.

Bugungi kunda O'zbekistonda islom moliyasiga qiziqish tobora ortib bormoqda. O'zbekiston — Markaziy Osiyoning 35 million ortiq aholiga ega muhim davlati, aholisining 93 foiz qismi musulmonlardir. U nafaqat gaz, neft va boshqa tabiiy resurslarga boy, balki azaldan ham ilm va islom dinining markazlaridan biri bo'lib kelgan.

Dastlab, 2003 va 2004 yillarda O'zbekiston ITB va xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasiga (ICD) a'zoli orqali islom moliyasini tan olish yo'lida muhim qadamlar qo'ydi. Bu institutlar va hukumat o'rtasidagi barqaror aloqalar islomiy moliyaga ushbu bozorga kirish nuqtasini qo'lga kiritish imkonini berdi.

Islom moliyasi sohasidagi ekspert Alijon Ravshanov (O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining sobiq o'qituvchisi) eng ko'p beriladigan savollarga javob berdi.

Islom moliyasining mohiyati quyidagicha tavsiflanadi:

- Islom ma'naviy qadriyatlariga asoslangan iqtisodiy farovonlik;
- Teng huquqlilik va xavf-xatarlarni taqsimlash;
- Odob-axloq qoidalariga rioya qilish va diniy bag'rikenglik.

Islom moliyasi tizimi — bu pul mablag'laridan foydalanish va taqsimlash jarayonida Islom huquqi qoidalariga mos keluvchi iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladigan Islom ekotizimining bir qismidir. Masalan, Islom dinida qarz berish yoki olish evaziga foyda ko'rish taqiqlangan, barcha moliyaviy jarayonlar esa haqiqiy iqtisodiy faoliyatga asoslangan bo'lishi kerak. Odamga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan sohalarni moliyalashtirishga ruxsat berilmaydi — masalan, qimor o'yinlari, alkogol, tamaki mahsulotlari va boshqalar.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, sarmoyador oylik dividendlarini chiqarib olmasdan, ularni qayta sarmoya qilsa, yillik foyda 28.8% emas, balki 32,06%ga yetishi mumkin. Bunday natija sarmoyadorning olgan foydasi ham savdoga yo'naltirilishi hisobiga yuzaga keladi.

Xulosa

Islom moliyasi xizmatlarini joriy etishning huquqiy asoslarini mustahkamlash

- Mamlakat qonunchiligida **Islom moliyasi prinsiplari** asosida bank xizmatlarini rivojlantirishga oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish
- **Shariat kengashini** tashkil etish va fatvo berish mexanizmini yo'lga qo'yish
- Markaziy bank va nazorat organlari bilan hamkorlikda Islom bankchiligini qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish

2. Islomiy moliyaviy mahsulotlar portfelini kengaytirish

- **Murabaha** (savdo asosida moliyalash) – iste'mol va korporativ kreditlar o'rnida
- **Ijara** (Islomiy lizing) – asbob-uskunalar, transport vositalari va ko'chmas mulk lizingi

- **Musharaka va Mudaraba** (investitsion hamkorlik) – bizneslarni moliyalashtirish uchun

- **Takaful** (Islomiy sugʻurta) – anʼanaviy sugʻurta xizmatlariga muqobil variant sifatida

- **Sukuk** (Islomiy obligatsiyalar) – kapital bozorini rivojlantirish vositasi sifatida

3. Mijozlar orasida Islom moliyasi boʻyicha xabardorlikni oshirish

- Islom moliyasi xizmatlari afzalliklarini tushuntirish boʻyicha **marketing strategiyalarini ishlab chiqish**

- Korporativ va jismoniy shaxslar uchun **seminar, trening va master-klasslar tashkil etish**

- Raqamli kanallar orqali (mobil ilovalar, internet banking) **Islom moliyasi mahsulotlari haqida interaktiv maʼlumot taqdim etish**

4. Raqamli Islom moliyasi infratuzilmasini yaratish

- **Fintex kompaniyalari bilan hamkorlik qilish** va Islomiy bank xizmatlarini raqamlashtirish

- Blokcheyn va aqlli kontraktlardan foydalanib **shaffof va ishonchli tranzaksiya tizimini yaratish**

- Mobil ilovalar orqali **Islomiy moliyaviy xizmatlarni soddalashtirish va ulardan foydalanishni osonlashtirish**

5. Xalqaro tajribadan foydalanish va hamkorlikni kengaytirish

- **IDB (Islom taraqqiyot banki), AAOIFI va IFSB** kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish

- Malayziya, BAA, Saudiya Arabistoni va Turkiyaning Islomiy bank tizimlaridan **tajriba oʻrganish**

- Mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun **Islomiy moliya institutlari bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyish**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023 yil
2. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.11.2019 yildagi O'RQ-580-son
3. "Markaziy bank to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.11.2019 yildagi O'RQ-582-son
4. "Bank siri to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 30.08.2003 yildagi 530-II-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Bank tizimini yanada isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni //2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi
8. O'zbekiston Respublikasi **Prezidentning 10.11.2023 yildagi «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-364 son qarori.**

Internet saytlari

1. <https://cbu.uz>(O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
2. www.stat.uz(O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi)
3. www.my.gov.uz(O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal)
4. www.lex.uz(O'zbekiston Qonunchiligi)
5. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
6. www.publicfinance.uz (O'zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi)
7. www.ziyonet.uz (O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmog'i)
8. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
9. www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)
10. www.sciencedirectassets.com (Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari)